# ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI

**Raximova Aygul Maxkamovna**
*Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumani*
*28-umumta'lim maktabi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ta'lim jarayonining ham boshqa sohalardek o'z nozikliklari va o'ziga xos e'tiborli tomonlari bor. Bu jarayonda har ikki tomon, ham ta'lim beruvchi va ham ta'lim oluvchi faol bo'lishi lozim. Aks holda bir yoqlama ta'lim jarayoni vujudga kelib, ta'limning asl mohiyati yo'qoladi. Boshqacha aytganda ta'limdan kutilayotgan natija kelib chiqmaydi. Bugun ko'pchiligimiz shikoyat qiladigan ta'lim mahsuldorligi pastligining asosiy sabablaridan biri ham ana shunda. Bu muammoni bartaraf qilish uchun ta'lim jarayonining ishtirokchilari uning asl mohiyatini anglab yetishlari lozim bo'ladi. Quyida biz ona tili va adabiyot fanlari misolida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning milliy va zamonaviy metodlarga asoslangan samarali tizimlari to'g'risida so'z yuritamiz.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili, adabiyot, zamonaviy, ta'lim, milliy, oliy, o'qitish, boshlang'ich, jarayon, samaradorlik.*

Ona tili va adabiyot fanlarini, xususan adabiyotni o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan tubdan farq qiladi. Shunga ko'ra, unga fan sifatida qaraydiganlar bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar ham kam emas. Demak, ular adabiyot o'qitish metodikasini ham san'at bilan tenglashtirishadi.

Ma'lumki, ona tili va adabiyot fanlari qayerda va qaysi tizimda o'qitilishiga qarab, turli samarali metodlar yordamida o'qitiladi. Ona tili va adabiyot fanlari ta'limning turli bosqichlarida xuddi boshqa fanlar kabi o'sib kelayotgan yosh avlod-o'quvchilarning yoshidan kelib chiqib o'qitiladi. Maslan boshlang'ich ta'limda bu jarayon asosan xalq og'zaki ijodi namunlari va bolalar adabiyoti namunalarini tadbiq qilish orqali amalga oshirilsa, katta sinflarda bu jarayon soddadan murakkablikka qarab boraverdi.

Har ikki holda ham asosiy maqasad o'quvchilarga o'qitilayotga materilaning mazunini yetkazib berish va uni amalga joriy qilishlariga yo'naltirish bo'ladi. Ya'ni ta'lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o'quvchilarda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma'naviy olamini

yaratishdan iboratdir. Yuqoridagi vazifalar “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”-da ham bevosita o‘z aksini topgan va bu meyyoriy hujjatlar bizga ta’limning yuqoridagi vazifalarini belgilashda yo‘lboshchi bo‘ladi [1].

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, o‘quvchi yoshlarning kelajakda qanday xislat va xarakterli inson bo‘lishlariga bevosita ta’sir etuvchi ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda o‘zgacha yondashuv va ta’lim tarzini olib borish lozim. Bu jaryonda o‘quvchilar adabiyot darslarida faqat shoirlarning tarjimayi holi yoxud yozgan asarlar sonini, ona tilidan esa qoidalarni mazmunini tushunmay yodlash emas, balki o‘tilayotgan darsning odatdagi darslarimizda o‘zlashtirilmay qolib ketadigan va asosiy jihati sanalgan, ma’noviy tomonini o‘zlashtirdilar. Ya’ni adabiyotda bu shoirning shaxsiyati uning asarlarida o‘z aksini topgaligi va qanday inson bo‘lganligini ko‘rsatish orqali, o‘quvchilarga undan ibrat olish va hayot yo‘lini tanlashda bu adib yo shoirning yozgan va aytganlariga amal qlish lozimligini yetkazib berishda o‘z aksini topsa, ona tilida bu jarayon adabiyot bilan bo‘g‘liq holda, sal boshqacharoq uslubda tus oladi. Ya’ni qoidalar bayon qilingach unga mos ravishda keltiriladigan misollar bevosita tarbiyaviy bo‘ladi va uning mazmunini ochib berish orqali o‘quvchi ham qoidani to‘liq tushunadi, ham undan saboq olib, muallifning ijodi bilan bevosita adabiyot orqali oshno bo‘lishga oshiqadi. Bu jarayon til va adabiyotning o‘zaro bog‘liqligi va birga ta’limda katta natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatadi [2].

Bu jarayonni amalga oshirishda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri bu ishni amalga oshiradigan tajribali va eng muhimi xarakteri bilan boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan o‘qituvchilarni jalb qilish bo‘ladi bu esa, o‘qituvchining shaxsiyati va pedagogik mahoratini oshirishni talab etadi. Bu jaryonni amalga oshirishda o‘qituvchilarni tayyorlashning dastlabgi bosqichlaridan ishni boshlash zarur. Ya’ni oliy ta’lim tizimida har tomonlama namunali xarakter sohiblari va bilimli mutxasislarini tayorlashni taqozo qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Almamatov T., Yadgarov Q.M., Almamatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish (Metodik qo‘llanma). -Toshkent – 2013.

2. Sultanov, B. R., Rashidov, A. S., & Kuziev, S. A. (2020). MILITARY RHETORIC IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, *17*(6), 3372-3378.

3. Кузиев Ш. А. и др. ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 1641-1643.

4. Kuziev, S. H., & Rahmonova, S. (2018). Distance learning and technology-the future of national education. *Foreign languages in Uzbekistan*, (1), 20.

5. Sh, Kuziev. "The ways of developing discourse competence in non-linguistic faculties." *The academy of Ma'mun in Kharezm* 5 (2020).

6. Janikulovna D. S. CLUSTERING METHOD TO DEVELOP LEARNERS WRITING SKILLS //Проблемы педагогики. – 2021. – №. 5 (56). – С. 35-36.

7. Kuziev, Shavkat, and Mukhlisa Kuzieva. "SOCIAL NETWORKS IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH." *Talqin va tadqiqotlar* 1.9 (2023).

8. Abdumuratovich, Kuziev Shavkat. "MODERN METHODS AND TIPS OF LEARNING ENGLISH." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 6.3 (2023): 58-60.

9. Kuziev, S. A. (2017). THE ROLE OF AUDIENCE AND CONTEXT IN THE SPEECH. In *Наука и образование: сохраняя прошлое, создаём будущее* (pp. 76-78).

10. Tilavoldiev, O., & Kuziev, S. (2019). THE METHODOLOGY OF GRAMMAR TEACHING. *Academy*, (5), 79-80.

11. Abdumuratovich, Kuziev Shavkat. "Progress in language teaching via picture stories." *Вопросы науки и образования* 2 (14) (2018): 60-62.

12. Abdumuratovich, Kuziev Shavkat. "The role of multimedia technology in teaching the English language." *Достижения науки и образования* 2.7 (29) (2018): 57-60.

13. Janikulovna, D. S., & Khidiralievna, A. G. (2017). The time spent with teacher. *Достижения науки и образования*, (6 (19)), 57-58.

14. Душаева, С. Ж., Унгарова, И. Г. К., & Жураева, Д. (2020). Основные проблемы обучения лексике. *Academy*, (6 (57)), 67-68.